



2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

*Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi*



Mamlakatimizda quay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 19 595 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,1 % ga o'sdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)


	Umumiy soni, birlik		01.04.2020 yil	
	01.04.2019 yil	01.04.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	17 182	19 595	114,1	100
shundan:				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 066	2 306	111,6	11,8
Sanoat	2 064	2 537	122,9	12,9
Qurilish	1 950	2 271	116,5	11,6
Savdo	3 756	4 588	122,2	23,4
Tashish va saqlash	792	878	110,9	4,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	987	1 223	123,9	6,2
Axborot va aloqa	320	342	106,9	1,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	309	385	124,6	2,0
Boshqa turlari	4 938	5 065	102,6	25,9

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)

2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 18 813 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 077 taga (12,4 %) o'sgan.

1 - aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (4 396 ta yoki 23,4 %), sanoat (2 444 ta yoki 13,0 %), qurilish (2 183 ta yoki 11,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (2 191 ta yoki 11,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 156 ta yoki 6,1 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (319 ta yoki 1,7 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (372 ta yoki 2,0 %) hamda tashish va saqlashda (883 ta yoki 4,5 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat
ko`rsatayotgan tijorat korxonalar**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2020 - yil 1- aprel holatiga ko`ra 15 265 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar - 3 128 ta, oilaviy korxonalar - 1 131 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar - 10 715 ta, unitar korxonalari - 114 ta, aksiyador korxonalar - 27 ta va boshqalar 150 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2020 - yil yanvar - mart oylarida 959 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 372 taga kamdir.

**Yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar
va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi,%

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat hamda qurilish, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi,%

01.04.2019




01.04.2020



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni, birlikda


01.04.2019



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

01.04.2020




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda

01.04.2019



01.04.2020




■ Bino va inshootlar qurish


■ Fuqarolik obyektlarini qurish

■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)**




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot,
birlikda
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)**



**Sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida
ma'lumot, birlikda**

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Tashkiliy-huquqiy shakkari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyligi, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yoki 4 381 tasi (28,8 %) - savdo, 2 416 tasi (15,9 %) - sanoat, 2 172 tasi (14,3 %) - qurilish, 2 135 tasi (14,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1 152 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, kamlari esa 272 tasi (1,8 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 281 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi hamda 833 tasi (5,5 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdoda (304 ta), sanoatda (187 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (153 ta), va qurilishda (98 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (17 ta), sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (19 ta) hamda tashish va saqlashda (31 ta) tashkil etilgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 160 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga yoki 25,0 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimidagi soni, birlikda (2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda (2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning jamiga nisbatan ulushi, %
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 66,6 % yoki 4 tasi sanoat, 33,4 % yoki 2 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 4 ta, Qozog'iston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasi - 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.


2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda


(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5 674 ta), To'rtko'l (1 936 ta), Beruniy (1 579 ta), Amudaryo (1 355 ta) va Ellikqal'a (1 214 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shumanay (468 ta), Mo'ynoq (451 ta) hamda Taxtako'pir (346 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (260 ta), To'rtko'l (107 ta), Ellikqal'a (75 ta), Nukus (68 ta), Beruniy (65 ta), Amudaryo (55 ta), Xo'jayli (47 ta), Qo'ng'irot (43 ta), Mo'ynoq (42 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorao'zak (19 ta), Qanliko'l (18 ta), hamda Taxtako'pir (12 ta) tumanlarida past darajani aks ettirgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 188 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 % ga o'sgan.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 188	883	14 305
Amudaryo	1 062	44	1 018
Beruniy	1 297	55	1 242
Bo'zatov	88	9	79
Qorao'zak	441	25	416
Kegeyli	376	15	361
Qo'ng'irot	781	53	728
Qanliko'l	366	18	348
Mo'ynoq	357	17	340
Nukus	732	28	704
Taxiatosh	442	29	413
Taxtako'pir	232	20	212
To'rtko'l	1 689	94	1 595
Xo'jayli	708	55	653
Chimboy	515	28	487
Shumanay	349	9	340
Ellikqal'a	971	42	929
Nukus sh	4 782	342	4 440


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamiga nisbatan ulushi, %**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 782 tasi (31,5 %) Nukus shahri, 1 689 tasi (11,1 %) To'rtko'l, 1 297 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 1 062 tasi (7,0 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

01.04.2019




01.04.2020



2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 924 tani tashkil qildi. Asosiy qismi Nukus shahri (246 ta), To'rtko'l (107 ta), Ellikqal'a (73 ta), Beruniy (64 ta), Nukus (62 ta) Amudaryo (55 ta), Xo'jayli (47 ta), Qo'ng'irot (42 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (12 ta), Qanliko'l hamda Qorao'zak (18 tadan) tumanlari ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda (2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)



2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan ulushi, %




Oilaviy korxonalar

2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'r'a yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 1 185 tani tashkil etib, ulardan 1 131 tasi yoki 95,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 48,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda


	01.04.2020-y.		2020-yil yanvar-mart
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 185	1 131	129
Amudaryo	253	242	18
Beruniy	78	75	9
Qorao'zak	7	7	
Kegeyli	15	14	1
Qo'ng'irot	51	49	1
Qanliko'l	51	50	5
Mo'ynoq	11	10	8
Nukus	50	47	7
Taxiatosh	62	57	11
Taxtako'pir	27	27	4
To'rtko'l	160	154	19
Xo'jayli	82	76	11
Chimboy	12	12	1
Shumanay	11	11	2
Ellikqal'a	100	98	13
Nukus sh	215	202	19

**Faoliyat ko'rsatatyotgan oilaviy korxonalarining
hududlar kesimida soni, birlikda
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)**



2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 129 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,2 % ga ko'paygan.

**2020 - yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**





**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2020 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	160	91	69
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	25	19	6
Nukus	10	8	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	6	4	2
Nukus sh.	35	17	18



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:71 230-82-23(24)**